



**O'ZBEK TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI, ZAMONAVIY
HOLATI VA GLOBALIZM, SINGORMANIZM HAMDA SUN'IY
INTELLEKT TA'SIRI**

Mohinur Shokirova,

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
(Samarqand kampusi) 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, zamonaviy holati va xalqaro maydondagi mavqeい tahlil qilinadi. Shuningdek, globalizatsiya, singarmonizm va sun'iy intellektning til rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan ko'rib chiqladi. O'zbek tilining zamonaviy o'zgarshlari, boshqa tillar bilan aloqasi hamda lingvistik jarayonlarga ta'siri misollar orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, til taraqqiyoti, tarixiy bosqichlar, sun'iy intellekt, xalqaro maydon, globalizatsiya, singarmonizm, texnologiyalar, lingvistika.

Til – inson tafakkuri, madaniyati va tarixining eng muhim ko'zgusidir. Har bir xalqning tili uning milliy o'zligi, madaniy merosi va tafakkur uslubining mazmuni hisoblanadi. O'zbek tili esa ming yillik tarixga ega bo'lib, turkiy tillar oilasida alohida o'rinn tutadi. Uning rivojlanish yo'li nafaqat lingvistik hodisalarga, balki geosiyosiy o'zgarshlarga, madaniy almashinuv jarayonlariga va texnologik taraqqiyotga bog'liq holda shakllangan.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir milliy til oldida dolzarb masala turibdi: *o'zligini saqlab qolgan holda yangilanish va rivojlanish zarurati.* Ayniqsa, o'zbek tili hozirgi zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va xalqaro muloqotning keskin ta'sirga uchrayotgani, uni rivojlantirish va himoya qilish bo'yicha aniq ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Til rivojining asosiy mezonlaridan biri bo'lmish singarmonizm qadimgi turkiy tillarga xos bo'lib, o'zbek tilida ham iz qoldirgan fonetik hodisalardan biridir. Biroq



zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan singarmonizmning o'zbek tilida sustlashishi va muayyan darajada yo'qolishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, globalizatsiya va sun'iy intellekt tildagi lug'at boyligi, so'zlashuv madaniyati va grammatik tizimga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zlashma qatlam so'zlarining ko'payishi, axborot texnologiyalari ta'sirida yangi atamalarning shakllanishi ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismidir.

Til har bir millatning madaniy va intellektual merosini ifodalovchi asosiy ifodasi hisoblanadi. O'zbek tili turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub bo'lib, uning taraqqiyoti qadimgi turkiy bitiklardan boshlab, jadidchilik harakarigacha bo'lgan uzoq jarayonni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'zbek tilining rivojlanishi bir necha bosqichlarga bo'linadi:

1. Qadimgi turkiy davr (X asrgacha bo'lgan davr).

Bu davrda ham tilimiz bir qadar rivojlangan bunga dalil tariqasida esa o'sha paytda yaratilgan asarlarni ko'rishimiz mumkin.

Masalan: qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalaridan, O'rxun-Enasoy yodgorliklari (VII –VIII) shu tilda yaratilgan. “ Men Bilga qoqon, bu yurtni mustahkamlash uchun kecha uyquni, kunduzi tinchlikni unutdim”. O'rxun bitiklaridagi “ Tegri qut “ (Xudoning qudrati) iborasi bugungi o'zbek tilida “ Tangrining kuchi “ shaklida ishlataladi. Bu jumlada ko'rinish turibdiki, qadimgi turkiy til hozirgi o'zbek tilining bo'shlang'ich shakllaridan biri hisoblangan.

2. Eski turkiy til davri (X – XIV asrlar).

Ushbu davrda yaratilgan asarlar Mahmud Koshg'ariyning “ Devoni lug'otit turk “ (Turkiy tillar devoni), Yusuf Xos Hojibning “ Qutadg'u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim), Ahmad Yugnakiyning “ Hibbat ul Haqoyiq” (Haqiqatlar arg'umoni), Xaydar Xorazmiyning “ Muhabbatnama“, Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” kabi buyuk asarlar yaratilgani tilimizning yorqin o'tmishidan dalolat beradi.

3. Eski o'zbek tili davri (XV – XIX asrning ikkinchi yarimgacha qo'llangan).



Bu davrda ham o’ziga xos ijodkorlar tomonidan o’zga xos asarlar yaratilgan. Xususan, bu davrda yashab ijod qilgan ijodkorlar Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Zavqiy, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy, Muqumiy kabilar. Ushbu davrni o’zbek tilining oltin davri deb atash mumkin. Chunki bu davorda Alisher Navoiyning “Xamsa” asari yaratilgan. U o’sha davrlarda turkiy tilning boshqa tillardan kam emasligini isbotlab bergen. Uning bu xususida “Muhokamat ul-lug’atayn” asari mavjud. Bu asarda Navoiy fors tili va turkiy til o’rtasidagi tafovutlarni tasniflab bergen. Turkiy tilning ustunligini isbotlash maqsadida ba’zi fors tilida yo’q so’zlarni turkiy tilda ifodalab bergen.

Masalan, “yig’lamoq” “fe’lining o’kurmak shakli faqat turkiy tilda uchraydi.

Navoiy she’rlarida:

“Tilga ijobat kerak, ham xulqu adab” – bu misra tilning nafaqat aloqa vositasi balki odob va madaniyat timsoli ekanini anglatadi.

4. Hozirgi o’zbek tili davri (XX asrdan to hozirgacha).

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida jadidchilik harakati ham rivojlandi. Bu harakatning asosiy maqsadi ilm-fan va marifat orqali o’zbek xalqining ongu tafakkurini o’zgartirish edi. Bu davrning eng yirik namoyondalari Mahmudxo’ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy bo’lib, ular maktab darsliklari, lug’atlar va o’zbek tilning grammatik qoidalarini yaratgan. Masalan: Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi: “Tl millat ko’zgusidir. Kimki o’z tilini yo’qotsa, u o’zligini ham yo’qotadi”. Keyinchalik bu davrda – tilda fonetik, morfologik va sintaktik o’zgarishlar yuz beradi, arab va fors tillaridan kirib kelgan so’zlar qisqartirilib, rus tilidan yangi terminlar qo’shiladi.

Masalan: “stol” (ruscha – стол) so’zi “jadval” yoki “stol” shaklida qabul qilingan, lekin bu o’zbek tilining asl grammatik qoidalariga mos kelmaydi.

Har bir bosqich tilning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan bo’lsa-da, hozirgi bosqich globalizatsiya va texnologik taraqqiyotning kuchli ta’siriga duch kelmoqda.



Globalizatsiya o'zbek tiliga ijobiy va salbiy jihatdan ta'sir qilmoqda.

Ijobiy tomoni:

Til imkoniyatlarini kengaytirish – o'zbek tilining xalqaro maydonga chiqish, xorijda o'zbek tilini o'rghanish markazlarining ochilishi (masalan, Turkiyadagi “Anqara” universiteti, AQSH dagi “Indiana” universiteti) til taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Salbiy tomoni:

Chet tillar ta'siri kuchayib bormoqda. So'nngi 30 yilda ingliz tilidan o'zbek tiliga 5000 dan ortiq yangi so'z kirib kelgan. Masalan, “market” (bozor), “call” (qo'ng'iroq), “meeting” (uchrashuv) kabi so'zlar o'zbekcha muqobillari bor bo'lsa ham, faol ishlatilmoqda.

Bugungi yoshlar o'rtasida “gaplashamiz” o'rniga “chatlashamiz”, “muloqot qilamiz” o'rniga “onlayn gaplashamiz” iboralari keng tarqalgan. Bu esa o'zbek tilining tabiiy rivojlanishiga xavf tug'diradi. Shunday ekan, haqiqiy taraqqiyot chet tillarini o'rghanish bilan bir qatorda, ona tilida mukammal fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish orqali namoyon bo'ladi.

Singormonizm: o'zbek tilida asta-sekin susayib borayotgan bo'lsa-da, ayrim so'zlarda uning izlari saqlanib qolgan.

Singormonizm – turkiy tillarga xos bo'lган tovush uyg'unligi hodisasi bo'lib, tarixiy jihatdan o'zbek tilida ham mavjud bo'lган. Ammo, arab, fors va rus tillaridan ko'plab so'zlarning kirib kelishi bilan bu hodisa susaygan.

Masalan, Qozoq tilida singarmonizm kuchi saqlanib qolgan: kitaplar (kitoblar), uylar (uylar). O'zbek tilida esa bu hodisa zaiflashgan: kitoblar, uylar. Bu jarayon fonetik uyg'unlikning yo'qolishiga olib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, o'zbek tilining rivojlanishida singarmonizmdan qolgan izlar hali ham mavjud.

Sun'iy intellektning o'zbek tiliga ta'siri.

Sun'iy intellekt (SI) – bu inson aqliga tanqid qiluvchi dasturiy ta'minot va algoritmlar majmuasidir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, o'z-o'zini



o'rganish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega. Bugungi kunda SI tilshunoslik, tibbiyot, sanoat, marketing va boshqa ko'plab sohalarda faol qo'llanmoqda. Sun'iy intellekt taraqqiyoti tilga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

Ijobiy tomonlari:

O'zbek tilidagi avtomatik tarjima tizimlari rivojlanmoqda (masalan, "Google Translate" va "DeepL"). Google Translate 2016-yildan boshlab o'zbek tilini qo'llab-quvvatlashni boshlagan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tarjima tizimlarining aniqligi 70-75% darajada qolmoqda, bu esa hali to'liq ishonchli emasligini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt yordamida ovozli yordamchilar o'zbek tilini ham tushunish qobiliyatiga ega bo'lб bormoqda.

Salbiy tomonlari:

O'zbek tilidagi sun'iy intellekt tizimlari cheklangan.

Al yordamida yozilgan matnlar nutq me'yorlariga putur yetkazmoqda (oddiylashtirilgan gap tuzilmalari keng tarqalmoqda).

Masalan, Al dasturlar yordamida o'zbek tilidagi matnlar avtomatik tarjima qilayotganda, ba'zan grammatik xatoliklar va mantiqsiz jumlalar yuzaga keladi. "Men kitob o'qiyan" o'rniiga "Men o'qiy kitob" tarzidagi tarjimalar uchrab turadi. Bu esa ona tilining tabiiy qoidalari zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellekt rivojlanishi tildan ongli foydalanishni talab qiladi.

Hozirgi kunda globalizatsiya, singarmonizmning susayishi va sun'iy intellektning rivojlanishi tilga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, tilni asrab-avaylash va rivojlantirish bizning burchimizdir.

Buning uchun:

O'zbek tilini xalqaro darajaga olib chiqish bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirilshi kerak.

Yosh avlodni ona tilining me'yorlarini to'g'ri tushunishga o'rgatish.

Til masalasini strategik darajada qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish



bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

O'zbek tilidagi ilmiy va badiiy resurslarni raqamlashtirish.

Globalizatsiya ta'sirida o'zbek tiliga kirib kelayotgan xorijiy so'zlarni o'zlashtirish tizimini izchil olib borish.

Sun'iy intellekt yordamida ilmiy va texnik atamalarni stantartlashtirish.

Tilshunoslar va jamiyat vakillari tilning tabiiy rivojlanishiga e'tibor qaratib, milliy lingvistik merosni asrab-avaylash borasida hamkorlik qilishlari zarur.

Davlat miqyosida o'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar amalda joriy etilishi va nazorat qilinishi.

Raqamli lug'atlar va terminologik bazalarni takomillashtirish kerak.

Jahon miqyosida ilmiy platformalar va texnologik tizimlarga o'zbek tilini integratsiya qilish.

O'zbek tilini xalqaro universitetlar va tadqiqot markazlarida kengroq qo'llanilishni qo'llab-quvvatlash.

Globalizatsiya sharoitida yangi atamalarni o'zbek tiliga moslashtirish va milliy terminologiyani mustahkamlash.

Xalqaro ilm-fan va texnologiyalar rivojiga mos ravishda o'zbek tilida yangi tushunchalar yaratish va ularni ommalashtirish.

O'zbek adabiyotini xorijiy tillarga tarjma qilish va dunyo miqyosiga taqdim etish.

Milliy madaniyat va tarixiy merosni keng targ'ib qiluvchi ilmiy, publitsistik va badiiy nashrlarni ko'paytirish.

Yosh avlodda milliy tilga hurmat va e'tiborni kuchaytirish.

O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha turli tanlovlardan, loyihamdan va festival dasturlarini tashkil etish.

Yoshlarning o'zbek tilida ijod qilish, ilmiy izlanishlar olib borish va ijtimoiy tarmoqlarda sifatli kontent yaratishlarini qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiy faoliyatda o'zbek tilining jozibadorligini oshirish, milliy brendlarni



xalqaro bozorga olib chiqishda tilning o'rnini kuchaytirish.

O'zbek tilida sifatli kontent yaratish uchun blogerlar, jurnalistlar va yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Diplomatik doiralarda o'zbek tilining mavqeini mustahkamlash va uni xalqaro tashkilotlarda rasmiy til sifatida tan olishga erishish.

Ilmiy maqolalarni faqat rus va ingliz tilida emas, balki o'zbek tilida ham xalqaro miqyosda e'lon qilish tizimini yo'lga qo'yish.

IT, iqtisod, tibbiyat va boshqa sohalarga oid xorijiy so'zlarning to'g'ri o'zbekcha muqobillarini ishlab chiqish.

Hududiy dialekt va shevalarni o'rganish hamda ularni rasmiy til bilan uyg'unlashtirish.

Yoshlar orasida to'g'ri yozish va so'zlash madaniyatni targ'ib qilish bo'yicha loyihalar ishlab chiqarish.

O'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha jamoatchilk tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Kino, teatr, musiqa va reklama sohalarida o'zbek tilining sifatli qo'llanishini ta'minlash.

Animatsiya va komiks industriyasini rivojlantirish.

O'zbekistonda ta'lim sifatini xalqaro miqyosda tan olinadigan darajaga yetkazish.

PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro retinglarda yuqori natijalarga erishish uchun milliy ta'lim tizimini takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalar va startap ekotizimini rivojlantirish. Kichik va o'rta beznis sohasini qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatni oshirish.

Ilm-fan va tadbirorlik o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash.

Yoshlarni milliy o'zlik va tarixiy meros bilan tanishtirish.

San'at va adabiyot orqali o'zbek an'analarini ommalashtirish lozim. Shuningdek, Fransiyada o'z ona tilini himoya qilish maqsadida davlat barcha rasmiy



hujjatlarida fransuz tilidan foydalanishni majbur qildi. O'zbekiston ham o'zbek tilini xalqaro maydonda mustahkamlash uchun shunga o'xshash strategalarini ishlab chiqishi lozim.

Zero, tilni yo'qotish – millatni yo'qotish bilan barobardir. O'zbek tili faqat bir aloqa vositasi emas, balki milliy tafakkur, tarixiy xotira va madaniy boylikning ajralmas qismdir. Agar biz o'z tilimizga e'tibor bermasak, u vaqt o'tishi bilan o'zining tabiiy jozibasini va boyligini yo'qotishi mumkin. Shu sababli, har bir inson tilni sevishi , uni hurmat qilishi va avlodlarga sof holatda yetkazishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Jo'rayev "O'zbek tilshunosligi asoslari". – Toshkent, 2020.
2. A. Navoiy "Muhokamat ul lug'atayn" (1499)
3. M.G'ulomov "O'zbek tili taraqqiyoti va globalizatsiya jarayoni".
Toshkent, 2021.
4. B.Qosimov. "O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy muommolari". – Toshkent. 2022.
5. S.Xudoyberganova "Globalizatsiya jarayonida milliy tillarning ahamiyati". – Toshkent ,2021